

## **TALABALARDA KASBGA YO‘NALTIRILGAN MULOQOT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI**

*Shomuradova Dilbar Abdishukurovna*

*O‘zDSMI katta o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Til, madaniy va kasbiy tayyorgarlikning turli jihatlarini imkon qadar uyg‘unlashtirilsa, chet tilida kasbiy muloqot ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga erishiladi. Mazkur maqolada integral yondashuv ta’lim mazmunining turli tarkibiy qismlarini, ta’lim sohalari va muassasalarini, shuningdek, ta’lim jarayoni sub’ektlarini birlashtirish jarayoni sifatida namoyon bo‘lishi hamda ushbu yondashuvning chet tilini kasbga yo‘naltirib o‘qitish jarayonida asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qilishi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** integrativ yondashuv, autentik material, fanlararo aloqa, kasbiy ehtiyoj, professional ta’lim, mutaxassislik fanlari.

Professional ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishda fanlararo aloqa chet tili mashg‘ulotlarda bevosita kasbga, sohaga oid autentik materiallardan foydalanish natijasida talabalarining mutaxassislikka oid bilimlarining boyib borishga va sohaga doir eng so‘nggi yangiliklardan xabardor bo‘lishga olib keladi va talabaning chet tilni o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasining oshishiga yordam beradi. Bizningcha, ingliz tilini mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalashtirib o‘qitishda ingliz tili mavzulari mutaxassislik fanlari mavzulari bilan uyg‘unlashtirilib, bo‘lg‘usi mutaxassisning kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqib saralanishi muhim.

60211900-Xalq ijodiyoti: ashula va raqs ta’im yo‘nalishi talabalarining kelajakdagi kasbiy faoliyati musiqa, san’at va madaniyat sohalari bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, bu ta’lim yo‘nalishidagi ESPning maqsad va vazifalari ingliz tilini autentik materiallar

asosida, ixtisoslik fanlari, san'at va musiqa bilan bog'liq sohalarga integratsiyalashgan, kasbga yo'naltirgan holda o'rgatishdir. Ushbu ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarda gapirish ko'nikamasini rivojlantirishda "Sahna nutqi" fanining ham o'rni salmoqlidir. Shu sababli, "Sahna nutqi" darslarida o'zbek tilidagi materiallar bilan bir qatorda ingliz tilidagi ijodiy namunalarga ham murojaat qilish tavsiya etiladi. K.O.Sorokinaning fikriga ko'ra san'at bilan aloqador yo'nalishlarda o'quv materialini tanlashda quyidagi mezonlarga tayanish kerak:

“- talabalar uchun qiziqarli bo'lgan folklor materiallaridan foydalanish;  
- frazeologik birliklarga doimiy murojaat qilish;  
- tanlangan materialda milliy-madaniy komponentga ega leksik birliklarning mavjudligini hisobga olish va hokazo.”[1]

O'qituvchi talabalarning ixtisoslik fanlari bo'yicha bilimlaridan maksimal darajada foydalanib, shu orqali kerakli kontekstni tanlaydi, ingliz tilini o'qitishni kasbiy yo'naltiradi va talabalarga tilni tezroq o'rganishiga yordam beradi. Ixtisoslik fanlari yordamida talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan ikki til (ona tili va chet tili) asosida bir xil ko'nikmalarni shakllantirish ancha oson kechadi. Ushbu yondashuv talabalarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga bo'lgan motivatsiya va ehtiyojlarni oshiradi, talabalar ingliz tilini o'rganishga o'zlari uchun allaqachon ma'lum va yaqin bo'lgan soha orqali yondashadi.

M.B.Klarinning fikriga ko'ra "... an'anaviy ta'lim usullari talabalarda ijodkorlik kayfiyatini shakllantirmaydi, natijada ularni kasbiy va ijodiy faoliyatga yetarlicha tayyorlamaydi”. [2] Bu borada Yu.F.Makarova quyidagilarni taklif qiladi: "Oliy o'quv yurtida chet tilini o'qitishni tashkil etishda talabalarning ijodiy salohiyatini oshirish uchun shart-sharoit yaratish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni hisobga olish zarur". [3]

Lingvodidaktikaning maqsadi chet tilini kasbga yo'naltirib o'qitish metodologiyasini ishlab chiqish bo'lgan, nisbatan yangi tarmog'i bu kasbiy lingvodidaktikadir. Kasbiy lingvodidaktikaning uslubiy muammolari chet tilini kasbga

yo'naltirib o'qitish jarayonini tashkil etish, uni tahlil qilish, boshqarish va chet tilining professional kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda modellashtirish bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga oladi. Bular "... malakali o'qituvchi va motivatsiali talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayonida o'qitishning maqsadlari, mazmuni, shakllari, vositalari va usullarini asoslash kabi masalalardir." [4] Qisqa qilib aytganda, kasbiy lingvodidaktika chet tilini o'qitish jarayonida mutaxassisning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish strategiyasini o'rganadi.

Chet tilini kasbga yo'naltirib o'qitish jarayoni asosida muloqot bo'lib, kasbiy lingvodidaktika ham kasbiy, rasmiy va madaniyatlararo muloqotni o'z ichiga olgan muloqot nazariyasi bilan bevosita bog'liq. A.N.Kuznetsova kasbiy lingvodidaktikaning asosiy va qo'shimcha tamoyillarini chuqur o'rgangan bo'lib, ushbu texnologiyaning asosiy tamoyillari sifatida tadqiqotchi ijtimoiy-kasbiy muhitni yaratish, kompetensiyaviy yondashuv talablari, integrativligi, fanlararo aloqadorlikni inobatga olish, chet tilida kasbiy kompetensiyalarini kompleks shakllantirish kabilarni ko'rsatadi. O'rganuvchining yoshi, ta'lim olishdagi muammolari, modulliylik, tilni o'qitishda uzviylikni ta'minlash, materiallarning originalligi va autentiligi kabi qator tamoyillarni esa kasbiy lingvodidaktikaning qo'shimcha tamoyillar deb beradi.

Kasbiy lingvodidaktikaning asosiy shartlaridan biri sifatida mutaxassislik fanlari bilan uzviy aloqa tushuniladi, ya'ni talaba mutaxassislik bo'yicha bilim va ko'nikmalarini chet tili vositasida rivojlantiradi. "Kasbiy lingvodidaktika ko'p qirrali bo'lib, u "Didaktika", "Kasbiy pedagogika", "Lingvistika", "Kasbiy psixologiya", "Muloqot nazariyasi" kabi maxsus fanlar bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, buni quyidagicha asoslash mumkin:

- kasbiy lingvodidaktika ta'lim berish bilan bog'liq ekan, demak, u "Didaktika" bilan bog'liq;

- chet tilidagi kasbiy kommunikativ ko'nilmalarni shakllantirishda shaxsiy fazilatlar, qobiliyat, kasbiy layoqat haqida gap ketar ekan, albatta, kasbiy lingvodidaktika "Lingvistika" bilan bevosita bog'liq;

- chet tillarini o'qitishning asosiy maqsadi kasbiy, sohaviy va madaniyatlararo muloqotga o'rgatishdan iborat, demak, kasbiy lingvodidaktika "Muloqot nazariyasi" bilan ham bog'liq."[5]

Yetarlicha keng uslubiy salohiyatga ega bo'lgan integrativ yondashuv, chet tilini o'qitishning tarkibiy qismini sezilarli darajada xilma xil qilish imkonini beradi va talabalarga chet tilida kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Integrativ yondashuvga asoslangan darslarni o'tkazish odatdagi darslardan farq qilishini hisobga olsak, o'qituvchi oldida yangi qiyinchilik va vazifalar paydo bo'ladi. Ushbu yondashuvda o'qituvchidan quyidagi ko'nikmalarni talab qilinadi:

- yangi materialni tanlash qobiliyati;
- yangi vositalardan foydalangan holda dars o'tkazish qobiliyati;
- chet tilini shakllantirish uchun to'g'ri ketma-ketlikdagi mashqlar tizimini yaratish qobiliyati.

Shu o'rinda 60211900-Xalq ijodiyoti: ashula va raqs ta'lim yo'nalishida ingliz tilin integrativ yondashuv asosida tashkil qilishni ko'zda tutuvchi mashqlardan birini ko'rib chiqsak:

### **Speaking:**

"Kasblar/Jobs" nomli matnni o'qish orqali talabalar yangi mavzu bilan tanishadi, so'ngra quyidagi savollar o'rta tashlanadi:

1. What do you expect from your future profession "Singer"? (satisfaction, a good salary, business trips around the world, new acquaintances, etc.)

Savolga javob berish orqali talabalar kelajak haqida o'ylashni va uni rejalashtirishni boshlaydi.

2. What qualities, abilities and skills do you think are necessary for your career? (Computer skills, artistic ability; organization skills, dedication; initiative, physical strength, technical thinking, good memory, a sharp mind; good eye memory, teamwork skills, leadership, ability to work; under pressure, a good telephone manner, ability to work to tight deadlines.)

3. In order to be a good singer, you should be: ambitious, attentive, calm, careful, cooperative, confident, creative, fair; flexible, friendly, handy, helpful, hard-working, independent, intelligent; logical, organized, polite, patient, punctual, practical, reliable, risky; responsible, sociable, serious, tolerant.

Yuqoridagi kabi savollarni talabalar o'zlarining mutaxassislik fanlari doirasida ham muhokama qilishadi va bu ularga ushbu savollarga ingliz tilida javob berishda qo'l keladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, integrativ yondashuv yordamida talabalar chet tili darslarida chet tilida kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish va ongli ravishda chet tilida bir nechta kasbiy yo'naltirilgan tematik bo'limlarni o'rganish uchun imkoniyatiga ega bo'ladilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Технология обучения средствами фольклора в процессе профессиональной подготовки учителя английского языка в начальной школе / К.О. Сорокина // Тез. докл. на межд. научно-практ. конф. по психологии и педагогики, г. Уфа, 23 мая 2015. С. 163–167.

2. Кларин М. В. Инновации в обучении: метафоры и модели: анализ зарубежного опыта. М.: Наука, 1997. 223 с.

3. Ю. Ф. Макарова. Креативное письмо с использованием музыки для эффективного обучения иноязычной письменной речи и развития творческих способностей студентов неязыкового вуза. Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2015. 4 (157) 87 bet.

4. Крупченко А.К. Становление профессиональной лингводидактики как теоретико-методологическая проблема в профессиональном образовании: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. М.: АПК и ППРО, 2007. 46 с.

<sup>1</sup> Крупченко А.К., Кузнецов А.Н. Основы профессиональной лингводидактики. Монография. Академия АКП и ППРО – М., 2015. – 223 С.